



## BO'LAJAK HARBIY TA'LIM O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Xudayarov Salohiddin Shaxobutdinovich

*Harbiy qism xizmatchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada bo'lajak harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik asoslari, bo'lajak harbiy ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligiga qo'yilgan talablar, harbiy pedagogning shaxsiy va kasbiy sifatlari haqida materiallar yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *pedagogika, chaqiriqqacha harbiy ta'lim, pedagogik muomala, harbiy pedagog, kasbiy kompetentlik, harbiy rahbar, o'quvchi-yoshlar, kasbiy va shaxsiy sifatlar.*

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены педагогические основы формирования профессиональной компетентности будущих педагогов военного образования, к профессиональной компетентности будущих педагогов военного образования, личностно-профессиональные качества военного педагога.

**Ключевые слова:** педагогика, военное образования до призыва, педагогическое общение, военный педагог, профессиональная компетенция, военачальник, студенты-молодежь, профессиональные и личные качества.

**Abstract:** *This article discusses the pedagogical foundations for the formation of the professional competence of future military education teachers, the requirements for the professional competence of future military education teachers, the personal and professional qualities of a military teacher.*

**Key words:** *pedagogy, military education, military education before conscription pedagogical communication, military educator, youth students, professional and personal qualities.*

XXI asrning muhim xususiyatlaridan biri – insonlar, ayniqsa yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun kurashning kuchayganidir. Xususan, qonli urushlar, qurolli to'qnashuvlar, iqtisodiy iskanjalar bilan bir qatorda, mafkuraviy qurollar ham yovuz kuchlar tomonidan faol ishlatilmoqda, yoshlarning tafakkuri, ongi, dunyoqarashini egallashga urinish tobora kuchayib bormoqda. Bunday vaziyatda yoshlarga samarali pedagogik ta'sir ko'rsatish, ta'lim-tarbiyada pedagogika imkoniyatlaridan faol va keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda yosh harbiy xizmatchilarni uzluksiz ta'lim jarayoniga qamrab olish, ularga harbiy mutaxassislikni mazmun-mohiyatini o'rgatish, harbiy xizmatchilarga xos bo'lgan harbiy-pedagogik va jangovar sifatlarini shakllantirish, shu orqali shaxsiy tarkibda harbiy intizom va harbiy-vatanparvarlikni qaror toptirish – Qurolli Kuchlarning ustuvor vazifasidir. Mamlakatimizda harbiy ta'lim tizimini, harbiy ilm-fanni, qolaversa harbiy pedagogikani takomillashtirish, uni zamonaviy talablar va



jahon standartlariga mos keltirish masalasiga davlatimiz rahbariyati tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada, Prezident Shavkat Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 26 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigida "Qurolli Kuchlarni yanada rivojlantirish, uning jangovar tayyorgarligi va qobilyatini oshirish doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi va davlatning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi" deb, alohida ta'kidlab o'tdilar<sup>15</sup>.

Markaziy Osiyoda maktab madrasalar o'rta asrlardayoq rivojlangan, hozirgi Ma'mun akademiyasiga o'sha davrda asos solingani fikrimizning dalilidir. Pedagogik tarbiyashunoslik qadimgi Yunonistondan keyin Markaziy Osiyoda rivoj topgan. Chunki dunyoga mashhur Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkirlar avvalo madrasada mudarrislik qilganlar. "Ikkinchi muallim" sifatida dunyoga mashhur Abu Nasr Forobi pedagogik madaniyati haqida shunday deydi: "Muallim shogirdga nisbatan o'ta hokimlikka ham, o'ta bo'shlikka ham yo'l qo'ymasligi lozim, chunki o'ta hokimlik shogirdda muallimga nisbatan nafrat uyg'otadi, agarda shogird muallimning bo'shligini sezsa, unda muallimga va uning ilmiga nisbatan sovish va mensimaslik paydo bo'ladi"<sup>16</sup>.

Buyuk ma'rifatparvar muallim mohir tadqiqotchi Abdulla Avloniy ta'lim tizimi, o'qitishni takomillashtirish, o'qituvchi malakasini shakllantirish bo'lg'usi o'qituvchilarni tayyorlash muammolariga mutloqo yangicha yondashgan olimdir. U o'qituvchilarning shaxsiy fazilatlari, axloqi, odobi, bilimdonligi, ziyrakligi, topqirligi, farosatliligi, aql zakovatliligi ta'lim va tarbiya uchun asosiy negiz ekanligini ta'kidlab o'tadi. Ayniqsa, uning fikricha, ijodiy izlanish, o'qish va o'qitishning yangi shakl, uslub hamda vositalarini qidirish o'qituvchilarning eng muhim sifatlaridan biridir<sup>17</sup>.

Qadimgi Sharq, pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri "Qobusnama"da ham nutq odobi va madaniyati haqida ibratli gaplar aytilgan bo'lib, ular hozirda ham ma'lum darajada o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

"Qobusnama" Kaykovus tomonidan 1082-1083 yillarda yaratilgan bo'lib, 44 bobdan iborat. Uning 7 - boblari so'z odobi haqidadir. Asar muallifning farzandiga qilgan nasihatlari sifatida yozilgan. U farzandini yoqimli, muloyim, o'rinli so'zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi: "Yaxshi so'zlashga o'rgan va muloyim so'zlashdan boshqa narsani odat qilma, negaki qanday so'zni gapirishni istasang, til shuni gapiradi. So'zni o'z joyida so'zla, joyida aytilmagan so'z, agar u yaxshi so'z bo'lsa ham yomon ko'rindi"<sup>18</sup>.

Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda eng avvalo muomala odobi u aloqa qiladigan odamlar,

<sup>15</sup> Prezident Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagagi majlisidagi nutqi. Postda gazetasi. 2018 yil 13 yanvar, 3-son.

<sup>16</sup> Abu Nasr Farobi "Baxt saodatga erishuv yo'llari" 17-bet.

<sup>17</sup> Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asari 32-bet.

<sup>18</sup> Kaykovus "Qobusnama" asaridan Toshkent "O'zbekiston" 1997 y. 46-47-betlar .



muassasalar bilan o'z kasbiy vazifasini bajarayotganda sodir bo'ladigan axloqiy munosabatlar nazarda tutiladi. Ushbu yondashuv asosida Yevropa pedagoglari muomala odobini shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratib ko'rsatadilar:

- o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi muomala;
- o'qituvchi bilan pedagogik jamoa o'rtasidagi muomala;
- o'qituvchi bilan ota-onalar o'rtasidagi muomala;
- o'qituvchi bilan ta'lif muassasasi rahbarlari o'rtasidagi muomala<sup>19</sup>.

Pedagogik muomala jarayonida pedagogning muomalaga o'ziga xos moslashuvi alohida rol o'ynaydi. Bunday moslashuv deganda psixologik, nutq, harakat va shu kabi usullar tizimi tushuniladi, mazkur tizim pedagogik vaziyatning vazifasi va xususiyatlariga o'xshash bo'lgan muomala tuzilishini tashkil etish, ongiga samarali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun tanlanadi.

Harbiy rahbarlar harbiy hayotga endigina kirib kelayottan barkamol shaxs sifatida shakllanadigan insonlar – o'quvchi-yoshlar bilan muomalada bo'ladi. O'quvchi-yoshlar harbiy muomala odobini asosan harbiy rahbar timsolida anglab oladi. Demak, shirin muomala har bir kishiga quvonch, bemorga malham va najot bag'ishlaydi. "Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi" fani tarkibida muomala madaniyatining nazariy va amaliy asoslarini, uning milliy va umuminsoniy xususiyatini yoritishga harakat qilinadi. Ta'lif muassasasida o'quvchi-yoshlarga uy, oila muhitidan tashqari dastlabki harbiy muomala, munosabat muammolariga duch keladi. Ya'ni oila, mahalla, ko'cha, tarbiyaviy ta'siridan farqli professional ta'sir ko'rsatiladi. Shuningdek, tarbiyadagi milliylik uyg'unligiga erishiladi. Ya'ni oilada, mahallada milliy qadriyatlar, mahalliy urf odatlar tarbiyasi ustuvor bo'lsa, ta'lif muassasasida dastlabki umuminsoniy qadriyatlar va harbiy bilimlar bo'yicha tushuncha, ko'nikmalarni shakllantirish yo'nalishida ham ish olib boriladi.

### **Bo'lajak harbiy ta'lif o'qituvchilarining kasbiy kompetentligiga qo'yilgan talablar**

Chaqiriqqacha harbiy ta'lif jarayonining vazifasi chaqiriqqacha bo'lgan yoshlarni jamiyat talablarini o'zida aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida milliy armiya safiga tayyorlashdan iborat. Chaqiriqqacha harbiy ta'lif jarayonida yoshlar ajododlar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat, harbiy bilim ko'nikmalarini o'zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida harbiy pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yoshlarda davr talabidan kelib chiquvchi yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo'ladigan sifatlarni shakllantirish harbiy pedagogik faoliyat sohasining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Buning uchun avvalo harbiy pedagogning o'zida yangicha bilim berish, o'zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muvofiq ijodiy faoliyat bilan shug'ullan olish ko'nikmalarini tarkib topgan bo'lishi lozim.

<sup>19</sup> Redjabov A.D. Yoshlarni milliy istiqlol g'oyasi asosida harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari: Ped.fanl.nomz. ...diss. – T.: 2004. – 167 bet.



Shaxs kadrlar tayyorlash milliy modelining muhim tarkibiy qismi, kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida belgilab berilgan. Bu esa respublikamizda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning yo'lga qo'yilishi uchun zarur asoslarni yaratib berdi. Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish avvalo ta'limning paradigmاسini o'zgartiradi. Shu paytga qadar mavjud ta'lim tizimida o'qitish ustuvor sanalgan bo'lsa, ayni paytda jamiyatning axborotlashuvi davrida ustuvorlik – o'qishga o'rgatishga yo'naltirilgan. Zamonaviy pedagog kadrlar yangi mavqega ega bo'lib, uning vazifasi eng avvalo yoshlarni mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etishga, bilimlarni mustaqil egallahsga va ularni amaliyotda qo'llash malakalarini shakllantirishga qaratilmog'i lozim. Pedagog bunday maqsadlarda, o'qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlash kerakki, ular yoshlarga nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishlarida, balki bilimlarni turli manbalardan mustaqil egallahslari, o'zlarida shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi, uni asoslashi va erishilgan bilimlardan yangi bilimlar olishlarida foydalanish malakalariga ega bo'lishlari lozim<sup>20</sup>.

### **Harbiy pedagogning shaxsiy sifatlari quyidagilardan iborat:**

- Yoshlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonunlari, yoshlarni faoliyatiga oid Prezident farmonlari va hukumat qarorlari, insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof-muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma'naviy mezonlarni o'zida mujassamlashtiruvchi davlat siyosatining dolzarb masalalari haqidagi bilimlarni o'zlashtirishini ta'minlash uchun pedagoglar siyosiy-huquqiy bilim va madaniyatga ega bo'lishlari lozim<sup>21</sup>.

- Yoshlarda vatanga muhabbat, yuksak ma'naviyat, milliy g'urur va milliy iftixor, axloqiy fazilatlar, globallashuv sharoitida milliy o'zlikni anglash, ma'naviy kamolotga intilish tuyg'ularini shakllantira olish uchun pedagog yuksak ma'naviy kamolotga ega bo'lishi talab etiladi;

- Yoshlarni yot va zararli ta'sirlardan himoya qilish, ularni hayotga, yon atrofda yuz berayotgan voqeа-hodisalarga dahldorlik hissi bilan yashashga o'rgatish, iymon-e'tiqodli, barkamol insonlar etib tarbiyalash, ular qalbida sog'lom hayot tarziga intilishni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ehtirom tuyg'ularini shakllantirish, o'z fikrini bayon qila olish, ilmiy asoslay bilishi uchun pedagog mafkuraviy immunitet va g'oyaviy kurashuvchanlik, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslarini puxta egallagan bo'lishi kerak;

<sup>20</sup> Muslimov.N.A. harbiy ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fanl. dokt. ... diss. T.: 2007. – 349 b.

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasining "Umumharbiy majburiyat va harbiy hizmat to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari. – T.: Adolat, 436-11-son. 2002.-5-bet



- Pedagoglar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan vijdon va diniy e'tiqod erkinligi masalalarini, respublikamizdagi barcha millatlar va dinlarga mansub kishilarning tinchligi va ravnaqini ta'minlashda diniy bag'rikenglikning o'rni va ahamiyatini bilishi, dinning xalqimiz ma'naviyatiga, insonning poklanishida, jamiyatni ruhiy-axloqiy jihatdan sog'lomlashtirish borasida islom dinining ijobiy ta'sirini targ'ib qilish ko'nikmalar, yoshlarni yaxshilikka, ezgu ishlarga chorlash, yoshlarda shakllantira olish malakalari bilan bog'liq diniy bag'rikenglik madaniyatiga ega bo'lishi lozim;

- Pedagoglar sog'lom hayot tarzini yuritish bo'yicha ilmiy tasavvur va e'tiqodga ega bo'lish, har bir millat, har bir xalq o'z nasl -nasabini, kelajak avlodini asrab-avaylashi, uning qadrini bilish, har qanday millatning ravnaqi, umumbashariyat tarixida tutgan o'rni, mavqeい va shuhrati bevosita o'z farzandlarining aqliy va jismoniy yetukligiga bog'liqligini idrok eta olish, sharqona axloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tarbiyalay olish bilan bog'liq sog'lom turmush tarzi va jismoniy madaniyatga ega bo'lishi lozim;

- Pedagog yoshlarda O'zbekistonda iqtisodiy yangilanish, rivojlanish va taraqqiyot yo'lida butun dunyo bilan o'zaro manfaatli iqtisodiy aloqalarga erishish, yoshlarda mulkdorlik tuyg'usini shakllantirish, jahon moliaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari va uni bartaraf etish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash yo'llarini, tabiiy va inson resurslaridan oqilona foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantira olishi talab etiladi.

### **Harbiy pedagogning kasbiy sifatlari quyidagilardan iborat:**

- pedagog kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishga undovchi rag'bat, yangi bilimlarni o'zlashtirishga intilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi axborotlarni olish, ilg'or tajribalarni o'rganish ehtiyoji, yuqori pedagogik mahorat darajasiga, pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatga erishishni ko'zlash, yoshlar va ularning ota-onalari bilan muloqot qila olish, zamonaviy texnika va texnologiyalar, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bilan bog'liq motivatsion sifatlarga ega bo'lishi lozim;

- pedagog eruditsiya, sezgirlik, ziyraklik, kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, tashxis qilish, bashoratlash, ijodkorlik, pedagogik fikrlash, zamonaviy texnika hamda texnologiyalar orasidagi umumiylilik hamda xususiylikni bilish bilan bog'liq intellektual salohiyatga ega bo'lishi lozim;

- pedagog o'zaro muloqotda chidam va sabotlilik, pedagogik faoliyatni amalga oshirish, pedagogik maqsadlarga erishish, o'z faoliyatining ahamiyatini oshirish, o'zligini rivojlantirish, loyihalashtirilgan pedagogik jarayonlarni amalga oshirishdagi qat'iyatlilikni o'zida mujassamlashtiruvchi irodaviy sifatlariga ega bo'lishi lozim;

- pedagog yoshlarning o'y-kechinmalar, quvonch va tashvishlarini tushuna olish, hamfikrlik, mammunlik, ochiqlik hissiyoti, yoshlarning yosh fiziologik va psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish, shuningdek, ruhiy muhitni boshqara olish bilan bog'liq hissiy sifatlarga ega bo'lishi lozim;



- pedagog axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishslash va undan maqsadli foydalanish usullarini egallash, kasbiy faoliyatda asosli mustaqil qarorlarni qabul qila olish, yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o'z ustida ishlashi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila olish, egallagan ko'nikma va malakalarni yangi, nostandard vaziyatlarda qo'llay olish, yangi axborotlar ichida tez yo'nalish olish, pedagogik qobiliyatlarni namoyon qilish, loyihalash va rejalashtirish bilan bog'liq amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim;

- pedagog kasbiy faoliyatini va o'z-o'zini tahlil qilish, baholash faoliyati, individual muloqot metodini ijtimoiy-kasbiy sohadagi tajribalar bilan qiyoslay olish; ijodiy jarayonda refleksiya qila olish, o'z individualligining rivojlanishi, kasbiy faoliyati va xulqidagi shaxsiy sifat hamda kamchiliklarini anglay olish, kasbiy kamolotga erishish bilan bog'liq o'z-o'zini boshqara olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi lozim.

#### **Amaliy kasbiy kompetentlik sifatlari quyidagilardan iborat:**

- Pedagogik-psixologik tayyorgarlik, mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish mahorati pedagog ta'lif-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan o'qitish shakllarining pedagogik-psixologik asoslari; o'qitish shakllarida o'qitish metodlari va vositalaridan o'rinali foydalana olish; ta'lif mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining uyg'unligi, uzviyligini ta'minlay olish; pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashning nazariy va amaliy asoslarini egallagan bo'lishi lozim.

- Tarbiyalashning usul va vositalarini egallaganlik ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda pedagog ilmiy-nazariy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy qadriyatlardan samarali foydalanish malakasiga ega bo'lish, o'qitish jarayonida yoshlar ongiga milliy g'oyani singdirishning mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarini bilishi; yoshlarni jamoaga birlashtirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, bajarilgan ishni baholay olish, ta'lif muassasalarida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning shakllarini, pedagogik etika me'yorlarini bilishi talab etiladi.

- Mustaqil va ijodiy ishlarni tashkil etish pedagog yoshlarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini tarkib toptirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati va nazariy asoslarini bilishi; iqtidorli yoshlarni aniqlash diagnostikasini, mustaqil ta'lifning tashkiliy va o'quv-metodik ta'minotini yaratish yo'llarini bilishi, o'quv materiali mazmuni asosida vosita, metod va shakllarini samarali tanlash va uyg'unlashtira olishi lozim.

- O'zlashtirish monitoringini amalga oshirishga tayyorlik pedagog yoshlarning bilimlarini ob'yektiv baholash mexanizmlarini ishlab chiqish, ularni mukammal ravishda reyting nazoratda qo'llashga qaratilgan didaktik vositalar majmuasini ishlab chiqish malakasiga ega bo'lish; yoshlarning bilimlarini ob'ektiv baholash mexanizmlarini bilishi va ularni mukammal ravishda reyting nazoratida qo'llash, standart testlarni ishlab chiqish va qo'llay olish malakasiga ega bo'lish; reyting tizimi topshiriqlarini reproduktiv va produktiv, qisman izlanishli va ijodiy darajada tuzish



va qo'llay olish; o'quv materialining didaktik tahlili asosida o'zlashtirishi talab etiladigan o'q uv elementlari, material hajmini belgilash va shu asosda ta'limgazmuni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish; mashg'ulotlarda yoshlarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun muammoli savollar majmuasini tuza olish; yozma ishlar, og'zaki savol-javoblar, amaliy ish natijalarini tahlil qilish, aniqlangan xato va kamchiliklar asosida ta'limgaz jarayoniga tegishli tuzatishlar kiritish olish; o'quv faoliyatini tashkil etish, boshqarish va natijasiga baho berish asosida mashg'ulotlar samaradorligini oshirish yo'llarini ishlab chiqish olishi lozim.

- AKTdan foydalanish pedagoglar informatika va axborot texnologiyalari asoslari, axborotlarni saqlash, qayta ishlash, tarqatish va namoyish qilishni bilishi, Microsoft Office dasturlarida ishlay olishi, Microsoft Excel dasturiy muhitida jadvalli ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyasi, Internetdan ma'lumot olish va ma'lumotlar kiritish texnologiyalarini bilishi, dasturiy ta'minotning asosiy turlarini bilishi va foydalana olishi, fanlardan maxsus taqdimotlar va elektron resurslar tayyorlashi va qo'llay olishi; masofaviy ta'limgaz elektron o'quv-metodik bazasini yaratish va undan foydalana olishi lozim.

- Xorijiy tillarni o'zlashtirish xorijiy tilda turli janrdagi audio va video matnlarni eshitib, asosiy ma'nosini tushunib muhokama qila olish; har qanday og'zaki nutqni tinglab tushunish; xorijiy tilda turli hujjatlari va badiiy filmlarni tushuna olish; kasbiy va shaxsiy qiziqishiga doir ma'ruzalar, prezентatsiyalar, nutqlarni tushuna olish, tanish mavzular bo'yicha ma'ruza annotatsiyalari, tezislar yozish.

- O'z-o'zini kasbiy rivojlantirish pedagog ta'limgaz beradigan fanlari turkumini ilmiy-nazariy jihatdan o'zlashtirgan bo'lishi, rivojlanish tarixi, fanda erishilgan yutuqlar, muammolar, ilmiy-tadqiqot va izlanishlar natijalaridan xabardor bo'lish; darsliklar, o'quv qo'llanmalari, o'quv-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, ulardan ta'limgaz-tarbiya jarayonida samarali va o'z o'rnila foydalana olish. Fanning maqsadi, vazifalari, predmeti va ob'yekti, asosiy metodlari; fanga qo'yiladigan asosiy talablar; umumiyligi yuklama hajmi va uning taqsimoti; fan bo'yicha tayyorgarlik ko'rayotgan bo'lajak mutaxassisiga qo'yiladigan umumiyligi malaka talablari; ilmiy-metodik ishlarni amalgalash, kasbiy faoliyat jarayonini tashkil etish va boshqarish; fan bo'yicha kasbiy kompetentlik darajasi; fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan gorizontal va vertikal uzviyligi ta'minlanganligi; fanni taraqqiy etish muammolari va yechimlari.

**Xulosa sifatida** bo'lajak harbiy ta'limgaz o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda quyidagi bir qator ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim: bo'lg'usi harbiy rahbarlar o'z faoliyati jarayonida ibrat, namuna ko'rsatish bilan yoshlarning harbiy faolligini, his-tuyg'usini, hatti-harakatini rivojlantirish; har bir mashg'ulot uchun material tanlash, uni murakkablashtirish va oldingi hamda keyingilari bilan aloqasini ta'minlashni nazarda tutish, mashg'ulotlarda o'quvchi yoshlarning yosh imkoniyatlari, ularni tarbiyalash va rivojlantirish istiqbollarini hisobga olish; harbiy pedagogik jarayonni harbiy rahbarlar jamoasi va alohida chaqiriqqacha bo'lgan yoshlar bilan ishlashni qamrab olgan holda rejalashtirish; o'z ish o'rnnini tashkil etish, zarur-



qo'llanma va hujjatlarni tayyorlash, ularni belgilangan talablar asosida yuritishini belgilab olish.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Umumharbiy majburiyat va harbiy hizmat to'g'risida"gi Qonuni.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi. Postda gazetasi. 2018 yil.
3. Abu Nasr Farobiy "Baxt saodatga erishuv yo'llari" asari.
4. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asari.
5. Kaykovus "Qobusnomा" asaridan Toshkent "O'zbekiston" 1997 y.
6. Redjaboev A.D. Yoshlarni milliy istiqlol g'oyasi asosida harbiy vatanparvarlik ruhidha tarbiyalashning pedagogik asoslari bo'yicha dissertatsiyasi.
7. Muslimov N.A. harbiy ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari bo'yicha dissertatsiyasi.